

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

6
2020
(Maxsus son)

www.xtjurnali.zn.uz



<https://t.me/xalqtalimijn>





TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

 L. Tomchani, N. Abdullayeva, I. Panferova	71	"Onalar maktabi" – ijtimoiy ta'lif loyihasi maktabgacha ta'lif tizimidagi muammolarni bartaraf etish yechimi sifatida
 S. Raximova	74	"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi – maktabgacha ta'lif tizimini rivojlanishiga innovatsion yondashuv sifatida
 F. Po'latov	78	Tasviriy san'at namunalari asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish
 M. Rizayeva	82	Maktabgacha ta'lif tizimidagi "rivojlanish markazlari" sifatlari faoliyatini ta'minlovchi tamoyillar
 H. Mizamova	85	Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini kreativ yondashuv asosida tashkil etish
 M. Fayzullayeva, M. Rustamova	88	Maktabgacha ta'lifda nutq o'stirish dasturini rivojlantirish tizimi



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

 S. Ashurova, N. Karimova	91	Kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy ta'lif vositalaridan samarali foydalanishning ahamiyati
 D. Amanova	95	Innovatsion yondashuv asosida maktabgacha ta'lif tashkilotlari musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish



TA'LIMDA IQTISODIYOT

 G. Nigmatova	99	Maktabgacha ta'lif tashkiloti rahbarlari iqtisodiy kompetentligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari
--	-----------	--



N. Abdunazarova 103 Didaktik o'yinlar orqali maktabgacha tarbiyalanuvchilarning ekologik tasavvurlarini shakllantirish



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

 N. Mavltonov	106	Maktabgacha ta'lif tashkilotlari pedagoglarning axborot kompetentligini rivojlantirish
 N. Mo'minova	110	Bo'lajak maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish



KORREKSION PEDAGOGIKA

 Z. Umarova	113	Alovida yordamga muhtoj bolalarni rivojlantirishda inklyuziv ta'limning o'rni
--	------------	---



PSIXOLOGIYA

 Sh. Qosimova, A. Zakirov	116	Maktabgacha ta'lif tizimida pedagogik-psixologik modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlari
--	------------	---



 N. Baxriyeva	119	Maktabgacha yoshdag'i bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning istiqbollari
--	------------	---



 X. Bo'riyev	122	Maktabgacha yoshdag'i bolalarda mehnatsevarlik ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari
---	------------	---



TA'LIM TARIXI

 Sh. Ne'matov	124	Ma'rifatparvar ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini maktabgacha ta'lif tizimida o'rganish – jiddiy tashkiliy-pedagogik muammo
--	------------	---



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

 I. Groshewa	127	Vliyanie predmetno-prostранstvennoy razvivayushchey sredy na igrovuyu deyatel'nost' detej v usloviyah doшkol'noy obrazovatel'noy organizatsii
---	------------	---



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

 Ф. Kадирова	131	Cistemaya razvitiya rechi detej v doшkol'nyx obrazovatel'nyx organizaciyakh
---	------------	---



 Л. Evstaf'yeva	135	Metod proekta v doшkol'nom obrazovanii, kak odin iz metodov integrirированnogo obucheniya doшkol'nikov
--	------------	--



ИННОВАЦИЯ

 Д. Zuparova, Н. Юлдашева	138	Dizayn obrazowania v doшkol'nyx organizaciyakh – innovatsionnaya tekhnologiya esteticheskogo воспитaniya
--	------------	--



ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

 М. Ischakova	141	Postrjenie modeli povysheniya kvalifikatsii pedagogov doшkol'nyx obrazovatel'nyx organizaciy na osnovye andragogicheskogo podkhoda
--	------------	--

Nargiza BAXRIYEVA,

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИ IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqlolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning psixologik omillari va shart-sharoitlari, mazkur masala bilan bog'liq muammolar, shuningdek, syujetli-rolli o'yinlar orqali bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar zamonaviy talablar kontekstida tahliliy yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiylashuv, emotsional rivojlantirish, emotsional tajriba, syujetli-rolli o'yinlar, muloqot.

В статье анализируются психологические факторы и условия социально-эмоционального развития дошкольников, проблемы, связанные с данной проблемой, а также даются рекомендации по социально-эмоциональному развитию детей посредством ролевых игр в контексте современных требований.

Ключевые слова. Социализация, эмоциональное развитие, эмоциональный опыт, сюжетно-ролевые игры, общение.

The article analyzes the psychological factors and conditions of socio-emotional development of preschool children, the problems associated with this issue, as well as recommendations for the socio-emotional development of children through role-playing games in the context of modern requirements.

Key words. Socialization, emotional development, emotional experience, role-playing games, communication.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga hamisha katta e'tibor qaratilgan, biroq, jamiyatimizda kechayotgan tub ijobiy o'zgarishlar sharoitida bolalarning emotsional (hissiy) sohasini ham rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham, – "Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish...", alohida ta'kidlangan.¹

Hozirgi davrda bolalarning televizor, internet, turli kompyuter o'yinlari va mobil aloqa vositalari olamiga kirishib ketishi ularning kattalar va tengdoshlari bilan izchil muloqot qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bolalarning boshqalar hissiy holatiga nisbatan past darajada, befarq munosabat bildirishi holatlari kuzatilayotganligi ham haqiqatdir.

To'laqonli rivojlanish faqatgina bola uchun qiziqarli va ahamiyatli faoliyatlar jarayonda tashkil etilishi mumkinligi zamonaviy maktabgacha ta'lif didaktikasida ta'kidlanadi. Shu jihatdan, bolalarni emotsional rivojlantirish zarurati mavjudligi quyidagi omillar orqali namoyon bo'lmoqda:

¹ O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i PQ-4312-soni Qarori.

- kuchli ijtimoiy taraqqiyot sharoiti maktabgacha yoshdagagi bolalarga o'z ta'sirini ko'rsatib, jiddiy emotsiyal sinovlarga duch kelishiga sabab bo'layotir, bu esa bolalar emotsiyal olamining rivojlanishini orqaga surishi mumkin;
- bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo'yicha mavjud dastur va metodik materiallar hozirgi kunda yanada takomillashtirishni taqozo etadi;
- uyda va maktabgacha ta'limga tashkilotida amalga oshiradigan barcha faoliyatlarida bolalar ko'pincha o'zlarining quvonch, ma'yuslik, hayrat kabi emotsiyalarni to'laqonli tarzda ko'rsata olmasliklari, shu bilan bir qatorda boshqa bolalarning emotsiyalarni to'g'ri baholay olmasliklari kuzatiladi.

Emotsiyalar bola hayotida muhim moslashtiruvchi funksiyani bajarib, ijobiy va salbiy hissiy holatlar ijtimoiy malakalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tovush, mimika, harakatlar kabi emotsiyalarning namoyon bo'lishi esa bolalarda noverbal kommunikatsiya tili sifatida qo'llaniladi. Emotsiyalar – subyektiv psixologik holatlarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, aktual ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat natijalarining bevosa kechinmalar shaklida aks ettirilishidir.

Emotsional kechinmalar – emotsiyalar, hissiyotlar va affektlarga bo'linadi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda hissiyotlar va emotsiyalar borasida yagona tasnif mavjud emas. Emotsiyalar borasida K.Izardning tasnifi keng tarqalgan bo'lib, bunda fundamental va hosila emotsiyalarni tahlil etilgan. Ular: qiziqish-hayajon, quvonch, g'ayrat, g'am-iztirob, g'azab, nafrat, qo'rquv, uyat, aybdorlik va boshqalar, qolganlari hosila emotsiyalardir. Fundamental emotsiyalar qo'shilishidan xavotirlanish kabi emotsiyal holatlar kompleksi paydo bo'ladi, u esa o'zida ham qo'rquvni, ham g'azabni, ham aybdorlik hissini, ham qiziqish-qo'zg'alishni aks ettirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni emotsiyal rivojlantirish muammosi shu bilan ahamiyatli, ushbu psixik jarayon boladagi har qanday faoliyat va xulq-atvor ko'rinishlarining ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi.

Emotsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri, ular bolaga atrof-muhitda to'g'ri mo'ljal olishga, predmet va hodisalarini zarurligi yoki zarur emasligi, foydaliligi yoki zararli ekanligi nuqtayi nazaridan baholashga ko'maklashadi. Hissiyotlarning kechinmalar tarzidagi turli ko'rinishlari (emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlar, stresslar, intilishlar, tor ma'nodagi hissiyotlar) yaxlitlikda bolaning emotsiyal dunyosini hosil qiladi.

Jumladan, bolada ifodalangan "men" obrazi uning o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarda aks etadigan hissiy sezgilar, idroki, tasavvurlari va xarakterli harakatlarining yaxlit namoyon bo'lishidir. Rivojlanayotgan men - turli psixologik maktablarda bola va kattalar shaxsi rivojlanishi nazariyasining markaziy mavzusi hisoblanadi.

Bola faoliyatining murakkab birgalikdagi harakat va shaxslararo muloqot dinamikasida uning turli yosh davrlarida olamga nisbatan ichki pozitsiya tarzidagi ma'lum qarashlar shakllanadi.

Yuqorida chizmada ko'rib turganimizdek, "Men-konsepsiya" inson o'z-o'zini idrok qilishi (o'z emotsiyalari, hissiyotlari, sezgilar, tasavvurlari va boshq.), o'z-o'zini kuzatishi (o'zining tashqi ko'rinishi, o'zining xatti-harakatlari) va o'z-o'zini tahlil qilishi (o'z fikrlarini, harakatlarini, boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatlari va ularni tenglashtirish) jarayonlari natijasida paydo bo'ladi. Bolalar maktabgacha ta'limga tashkilotlariga kelishi bilan ularning emotsiyal rivojlanishida yangi davr boshlanadi. Rolli va syujetli o'yin faoliyatlarini amalga oshirish natijasida bolalarda:

1. O'z emotsiyalari va tuyg'ularini bilish va boshqara olish malakalari.
2. Boshqalarning emotsiyalari va tuyg'ularini anglashi.

3. O'zi, yaqinlari, do'stlari, oila a'zolari va atrofdagilar bilan samarali muloqotga kirisha olish sifatlari shakllanib boradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni ijtimoy-hissiy rivojlantirishda quyidagi innovation metodikalardan foydalanish mumkin. Rivojlantiruvchi metodlar: dialogli (suhbat, diskussiyalar), modellashtirish (ma'lum vaziyatlarni loyihalashtirish, nizoli va boshqa vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishni prognozlashtirish va boshq.)

Stimullashtiruvchi – o'yin (imitatsiyaga asoslangan, ramziy, muammoli-o'yinli, didaktik, belgili-ramziy) metodlar;

Qo'llab-quvvatlovchi (ijobiy baho, birgalikda faoliyat, ya'ni, ishtirokchiga aylanish, tushunish va boshq.);

Korreksiyalovchi – o'z xatti-harakatlari va muloqoti natijasini oldindan ko'ra olish, muloqotga kirishish qoida va usullarini muhokama qilish.

Yuqoridagi tahvilii fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ijtimoiy-hissiy rivojlanish – ijtimoiy madaniy tajribani o'zlashtirish va boshqalarga uza-tish jarayoni bo'lib, bu tajriba bola shaxsida betakror xossa sifatida, o'zaro bog'liq to'rt tarkibiy qism bilan namoyon etiladi:

- madaniy malakalar;
- ijtimoiy me'yorlar borasidagi bilimlar;
- rolli xulq-atvor, turli vaziyatlarda xulq-atvorning namoyon etilishi;
- boshqalar haqida g'amxo'nlik, hamkorlik, tashabbuskorlik, mustaqil fikrga ega bo'lish, ijtimoiy moslashish kabi ijtimoiy sifatlar tig'iz o'zaro aloqadorlikda amal qilishi kutiladi.

Kuylangan yoki tinglangan qo'shiq, o'qib berilgan ertak, she'r va hikoyalari asosida bolalar bilan birgalikda inssenirovkalar yaratish ijobiy ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan tashkil etiladigan syujetli-rolli o'yinlar jarayonida ular o'z hissiyotlarini, harakatlarini boshqarish, o'zları, yaqinlari, do'stlari, oilasi va umuman ijtimoiy muhitda boshqalar bilan munosabatga kirishish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Muxtasar aytganda, maktabgacha yoshdagagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish izchil muloqot va interaktiv faoliyatlar vositasida amalga oshiriladi hamda izchil emot-sional faollik orqali namoyon etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i PQ-4312-son qarori.*
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi O'RQ-595-son Qonuni. Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son.
3. Grosheva I.V. va boshqalar. "Ilk qadam" davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlari. – T., 2018. – 63 b.
4. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ni tasdiqlash haqidagi buyruq. Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son. – 8 b.
5. Попова С.В. Социально-эмоциональное развитие детей в условиях детского сада. "Молодой учёный", №50 (184), 2017. – С.260-262.